

**NOVERBAL VOSITALARNING KOMMUNIKATSIYADAGI  
AHAMIYATI  
ВАЖНОСТЬ НЕВЕРБАЛЬНЫХ СРЕДСТВ В ОБЩЕНИИ  
THE IMPORTANCE OF NON-VERBAL MEANS IN  
COMMUNICATION**

**Madina BERDIMURATOVA**

*Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti O'zbek tilini o'qitish metodikasi  
kafedrasi tayanch doktoranti, Jizzax*

*E-mail: [madinaberdimuratova65@gmail.com](mailto:madinaberdimuratova65@gmail.com) Tel: 88 934 86 68*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada noverbal vositalarning kommunikatsiyadagi ahamiyati haqida so'z boradi. Muloqot bu kishilar o'rtasidagi o'ziga xos extiyoj. Maqolada insonning ushbu extiyojini, his-tuyg'ularini so'zsiz, hatti-harakatlar orqali yetkazish mumkinligi va buni amalga oshirishda qo'llaniladigan muloqot turlari haqida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, kommunikatsiya jarayonida vizual noverbal muloqot turlarining qo'llanilishi bayon etilgan.*

**Tayanch iboralar:** *Noverbal vosita, vizual idrok, kommunikatsiya, muloqot shakllari, noverbal muloqot, verbal muloqot, yuz holati, mimika, teri reaksiyasi, qo'l harakati, inson imo-ishoralari.*

**Аннотация:** *В данной статье говорится о важности невербальных средств в общении. Общение является особой потребностью между этими людьми. В статье приведены сведения о возможности передачи этого желания и чувств человека без слов, через действия и используемых для этого видах общения, а также описано использование визуальных невербальных видов общения в процессе общения.*

**Ключевые слова:** *невербальная средства, реакция кожу, изуальное восприятие, коммунікатція, форми общения, невербальная коммуникация, вербальная коммуникация, состояние лица, мим, кожная реакция, движение руки, человеческие жесты.*

**Annotation:** *This article talks about the importance of non-verbal means in communication. Communication is a special need between these people. The article provides information about the possibility of conveying this desire and feelings of a person without words, through actions, and the types of communication used to do this, and the use of a visual non-verbal communication types in the communication process is described.*

**Key words:** *nonverbal means, visual perception, communication, forms of communication, nonverbal communication, verbal communication, facial condition, facial expressions, skin reaction, hand movement, human gesture.*

### **KIRISH**

Muloqot kishilar o'rtasidagi aloqa almashinuvining muhim shartidir. Muloqot kamida ikki kishining o'zaro ta'sir jarayoni bo'lib, bu ta'sir davomida axborot almashinadi, munosabat o'rnatiladi va rivojlantiriladi. Muloqot jarayonida inson xulq-atvorining muayyan obraz va modellari shakllanib, keyinchalik uning shaxsiyatida aks etadi. Muloqot murakkab jarayon bo'lib, uning yagona ta'rifi yo'q. E.Melibruda muloqotni quyidagicha ta'riflaydi: "Muloqot shaxslararo munosabatlarda biz uchun havodek ahamiyatga egadir".

Demak, muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir. Aynan muloqot yordamida insonlar tabiatini o'zgartirish va o'z individual ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Muloqot jarayonida qo'llaniladigan murakkab belgilar tizimi va so'zlovchining tinglovchiga munosabatiga ko'ra muloqotni verbal va noverbal muloqot turlarga ajratamiz. Verbal kommunikatsiya so'zlar vositasida aks ettiriladi. Noverbal muloqot esa yuz ifodasi, mimika, pantomimika, kulgu, ko'z yosh, ko'z holati, qo'l harakati, oyoq harakati, yelka harakati kabi ko'plab vositalarni o'z ichiga oladi. Ruhshunos Allan Piz noverbal muloqotni shunday ta'riflaydi: "Noverbal xulq-atvorning ko'plab imo-ishoralari o'zlashtirilgan bo'ladi va ko'p harakatlar, imo-ishoralarning ma'nosi madaniy shartlangandir".

### **ASOSIY QISM**

Noverbal muloqot XIX asrning 60-yillaridan tadqiq etila boshlangan.

Noverbal muloqot asosan, soʻzlashuv jarayonida verbal muloqotni toʻldirib, mavzuga qoʻshimcha maʼno yuklaydi. Noverbal vositalarni koʻplab tilshunos olimlar jumladan, Yuliy Fast, L.Robert Vaytsayd, Leopold Bellan, E.Gofman, J.Lich, B.F.Lomov, I.Romanova, T.Larina kabilar tadqiq qilishgan. Jumladan L.Robert Vaytsaydning “Yuz tili” kitobi noverbal muloqotning vizual turiga kiruvchi yuz holatiga bagʻishlangan boʻlib, unda yuzga oid noverbal harakatlar, mimikalar izohlab berilgan. Odamning yuzi boshqa tana aʼzolariga qaraganda koʻproq hissiy maʼnoni gavdalantira oladi. Publitsiy aytganidek, biz “ovoz bilan gapiramiz tana bilan suhbatlashamiz”. Noverbal vositalar nafaqat soʻzlashuv uslubida balki, badiiy asarlarda ham keng qoʻllaniladi. Ushbu vositalar asar tilini boyitib, nutqni toʻldirib, asar qahramonlarining emotsional holatini aks ettirishga va soʻzlarning hissiy boʻyoqdorligini oshirishga xizmat qiladi. Quyida xalq ogʻzaki ijodiga mansub “Shirin bilan Shakar” dostonidan parcha keltiriladi;

Gʻam bilan sargʻayib guldayin diydor,

Oʻtirma buvishim bunda bexabar,

Yigʻlab ketdi Shirin bilan bek Shakar,

Otasin jallodi uni oʻldirar. [“Shirin bilan Shakar” xalq dostoni, 21-bet] Ushbu parchada “sargʻayib”, “guldayin” soʻzari noverbal vositalar hisoblanadi. Sargʻaymoq- 1) Sariq tus olmoq. Kuz tushdi, barglar sargʻaydi. 2) Koʻchma; Zoriqib, toliqib kutmoq, mahtal, intiq boʻlmoq. 3) Koʻchma; Qattiq yalinmoq, iltijo qilmoq; iztirob chekmoq maʼnolarini ifodalaydi [OʻTIL, 3 -tom, 457-bet]. Guldayin soʻzi esa 1) Gul kabi, gulga oʻxshash. 2) Chiroyli, goʻzal, latofatli. 3) Koʻchma; Yosh, navqiron degan maʼnolarni bildiradi [OʻTIL, 5-tom, 517-bet]. Asarda keltirilgan parcha Boʻtakoʻz oyimning kanizlari tomonidan buvishiga keltirilgan xabarni aytish jarayonida Boʻtakoʻz oyimning sifatlarini ochib berishga ham xizmat qiladi. Demak, Boʻtakoʻz oyim chiroyli, latofatli ayol. Bundan tashqari guldayin soʻzi ijobiy sifatdagi soʻz boʻlib, Boʻtakoʻz oyimning goʻzallik va chiroyini aks ettiribgina qolmasdan, uning yaxshi ayol ekanligini ham ifodalaydi. Parchada shu latofat va chiroyini gʻam, dard yengib, sargʻaytirmasligi uchun unga kanizlari tomonidan yuz bergan hodisa haqida xabar berilmoqda. Har qaysi rang

ma'lum holat, kayfiyat ma'nosini anglatadi. Sariq rang ko'chma ma'noda O'rta Osiyo xalqlarida betoblik va kasallikni anglatadi. Matndagi "sarg'ayib" so'zi salbiy ma'nodagi holatni ifodalab kelmoqda.

Qurg'ur kampir ko'zi alanglab yotibdi. [Shirin bilan Shakar xalq dostoni, 77-bet]. Ushbu misrada "ko'zi alanglab yotmoq" iborasi qo'llangan. Ibora bir vaqtning o'zida ham ibora, ham noverbal vosita vazifasini bajarmoqda. Alanglamoq fe'li eski o'zbek tilida "olazarak" ma'nosini anglatgan "alan" so'ziga –la qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan. Ma'nosi alang-jalang qaramoq, olazarak bo'lmoq. [O'zbek tilining etimologik lug'ati, 1-jild]. Alanglamoq- Alang-jalang qaramoq, olazarak bo'lmoq [O'TIL 1-tom, 67-bet]. Ushbu so'z xavotr va shubha kabi ma'nolarni bildirib, salbiy bo'yoqdorlikga ega so'z hisoblanadi. Alanglamoq so'zi orqali asardagi kampirning niyati yaxshi emasligi ya'ni shum niyati, botinida xavotr, gumon borligi anglashiladi. Ko'zlar aldamaydi. Ularda yolg'on yo'q. Shuning uchun yuqoridagi misol ham kampirning yomon niyatini ko'z vositasida oshkor qilmoqda. Aynan mana shu jarayonda biz noverbal vositalarning asl kuchini anglaymiz. Ularning so'zlar yordamida bildirilgan fikrdanda kuchliroq ahamiyat kasb etishini tushunamiz. Zamonamiz olimlaridan biri tilshunos Gulrux Xasanova noverbal vositalarga ta'rif berib shunday deydi: "Noverbal vositalar verbal vositalarning o'rnini bosishi mumkin, chunonchi, xabarni tasdiqlash uchun boshini qimirlatish yoki maqtash uchun bosh barmoqni yuqoriga ko'targan holda qolgan barmoqlarni kaft ichiga yig'ib ko'rsatish mumkin". Demak, noverbal vositalar insonlarning tana orqali so'zlashuvini ifodalab, ularning so'zlar orqali yetkazib berolmaydigan emotsiyalarini, ichki kechinmalarini mimika, imo-ishora va xatti-harakatlar vositasida ifodalash jarayonidir.

## **XULOSA**

Jamiyat o'zaro rivojlanishda davom etar ekan, til ham rivojlanib, sayqallanib boraveradi. Yangilanayotgan til hodisasi esa doim insonlarning diqqat markazida bo'ladi. Nafaqat verbal balki, noverbal vositalarning ham ahamiyati kundan kunga oshib boraveradi. Bu esa tilshunos olimlar oldiga ushbu vositalarni to'liq va chuqur

tahlil qilish, izohlash, yangi ma'no imkoniyatlarini ochib berish vazifasini qo'yadi.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbek tilining izohli lug'ati 5 Tomlik. Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
2. M. Abdurazzoqova. Noverbal muloqot va uning kommunikatsiyadagi o'rni. – Orient Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2023.
3. Allan Piz. Tana tili (harakatlardan fikrlarni qanday o'qish mumkin). –Toshkent, 2015.
4. Shirin bilan Shakar. F. Yo'ldosh. Toshkent, 2017.
5. G. Xasanova. Dialogik nutqda noverbal vositalarning o'rni va ularning pragmatic xususiyatlari. ydullayeva Surayyo. Samarqand, 2023.
6. B. Odinayev. O'zbek nutqiy muloqotining lingvopragmatik xususiyatlari (E. A'zam asarlari misolida). –Samarqand, 2024.
7. F. Temirova. NOVEBAL KOMMUNIKATSIYA – PARALINGVISTIKANING O'RGANILISH TARMOG'I SIFATIDA //SCIENCE AND INNOVATION. 2022.-S.22.
8. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 1-jild. –T: Akademnashr, 2012. –B. 161.